

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN O'QUVCHILARDA O'QISH KO'NIKMASINI SHAKILLANTIRISH

*Orazbayeva Venera Jangabay qizi  
A'jiniyoz nomidagi Nukus Davlat  
pedagogika Institutining "Boshlang'ich  
ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi.  
Qoraqolpog'iston, Nukus*

**Annotaciya:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarni o'zlashtira olmasligiga sabab bo'ladigan holatlar, o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilarni qanday qilib foal o'quvchilarga aylantirish va qanday mashqlar orqali o'qish ko'nikmasini shakillantirish kerakligi, o'quvchining o'qish ko'nikmasini o'zlashtirishiga to'sqinlik qiladigan sabablarni yo'q qilish

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf, o'qish ko'nikmasi, to'g'ri o'qish, tez va tushinib o'qish, ravon o'qish, sidirg'a o'qish.

Kelajakda mamlakatimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan barkamol shaxslarni yaratishda boshlang'ich ta'lim poydevor vazifasini bajaradi. Bunda boshlang'ich sinf o'qtuvchisi va albatta o'quvchiga ma'sul shaxsning vazifasi katta. O'qtuvchining asosiy maqsadi - o'quvchilarning bilimli, tartib-intizomli, fikirlash doirasi keng bo'lishini taminlashdir. O'quvchilarning ongi va tafakkuri fikir yuritishi endigina shakillanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qtuvchining mahorati, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi ilg'or pedagogik tajribalardan mohirona foydalana olishi ta'lim berishning yangi usullarini tanlashi juda muhim ahamyat kasb etadi.

O'sib kelayotgan bolalarni barkamol shaxslar etib ta'rbiyalash hozirgi kunning dolzarb muommosidir. Ilim fanning rivojlanishi bizning yanada bilimli bo'lishimizni talab etmoqda. Bilim olish ko'nikmasini shakillantirishda boshlang'ich sinf muhim bosqichdir. Maktabga munosabat, ilim olishga, o'qishga qiziqish va ishtiyoq, tez va ravon tushinib olish ko'nikmasi boshlang'ich sinfda hosil bo'ladi. Bundan tashqari tinish belgilariga e'tibor berib, ravon, tushinib o'qish va boshqalar talab etiladi. Bundan ko'rinib turibdiki boshlang'ich sinfda egallanadigan o'qish ko'nikmalarini bolalarga singdirish oson emas. Bolaning sovod o'rganishi bilangina o'qish ko'nikmasi shakillanib qolmaydi. O'qish ko'nikmasi, o'qtuvchining mahorati, tajribasi, o'rgatish usullari va albatta o'quvchining maktabga qanday tayyorgarlik bilan kelganligi, o'qishga foal intilishi, qiziqishi bilan bog'liqdir.

Lekin, ta'n olish kerakki, har qancha mukammal ish tashkil etilmasin o'quvchilarning malum qismida o'qish ko'nikmasi talab etilgan darajada shakillanmaydi. Shu sababdan ham 5-sinfga qadam qo'yadigan o'quvchilar orasida

matinni etarlicha tezlikda tushinib o'qiy olmaydigan o'quvchilar uchraydi. Bunday o'quvchilarni qo'shimcha o'qitish ham oson emas albatta. Negaki ularda foallik etishmaydi, sust harakat qilish kuzatiladi. Ularga eng avvalo to'g'ri o'qish ko'nikmasini o'rgatish lozim.

To'g'ri o'qish deganda so'zlardagi harflarni tushirib qoldirmasdan so'zlarga urg'uni to'g'ri qo'yib tallafuz qilgan holda xatoga yo'l qo'ymay o'qish tushiniladi. Olim va olim T. Ashrapova va M. Odilovalar "Adabiy talaffuz me'yorlariga qo'yiladigan barcha talablar, to'g'ri o'qish ko'nikmasiga ham taalluqlidir"- deb ko'rsatadilar.

Oquvchilarning darslarni o'zlashtirishi pastdagi sabablarga ko'ra sust holatga kelishi mumkin:

- 1) O'quvchining ota-onasi yoki, o'quvchiga ma'sul bo'lgan boshqa shaxs bolaga etiborsiz munosabatta bo'lishi. O'quvchining baholariga qiziqmasligi, uy vazifalarini qilayotganini nazorat qilmasligi, tekshirmasligi sababli o'quvchining darslarni o'zlashtirishi qiyin kechadi.
- 2) O'qtuvchi darsni zerikarli tarzda olib borishi, ovoz tempi past bo'lishi, mavzuni ravon, to'liq tarzda yaxshi tushintira olmasligi, o'quvchini etiborini qozana olmasligi singari sabablarga ko'ra, o'quvchilarni mavzularni tushinishi qiyinlashadi va o'quvchini baholari pasayib ketishi mumkin.
- 3) O'quvchining dars tayyorlaydigan xonasi shovqin, dars qilishga noqulay bo'lsa o'quvchining darslarni o'zlashtirishi qiyin kechadi.
- 4) Maktabgacha bo'lgan davrda bolani kitobga, ilim olishga qiziqtirib borilmasa, aksariyat hollarda hechqanday tayyorgarliksiz maktabga qadam qo'ysa boshqa o'quvchilardan ortta qolishi kuzatilishi mumkin.
- 5) Uyda bola nazoratsiz bo'lsa, uni o'qishdan chalg'ituvchi narsalarga berilsa, masalan: telefon, kompyuter o'yinlari yoki haddan tashqari ko'b televizor tomosha qilish bolaga sa'lbiy tasirini ko'rsatadi.
- 6) Bolaning salomatligida, ko'rish yoki eshitish azo'larida muommalar bo'lsa uning darslarini o'zlashtirishi qiyin kechadi.

Bunday holattagi o'quvchilarni o'qishga intilishini kuchaytirish, o'qishga, bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, o'qish texnikasini kuchaytirish lozim. Buning uchun o'qtuvchi o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan alohida qo'shimcha ishlashi zarur. Dastlab o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilarga oson so'zlar bosma tarzda yozib beriladi. Ya'ni boshlanishiga 2 harfli so'zlar varaqqa bosma shakilda yozib beriladi. Misol uchun:

Osh, un, ot, oq, oy, uch, ol...

Har bir o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchiga shu kabi so'zlardan 25-30 so'z atrofida yozib beriladi va o'qitiladi. O'quvchilar o'qib bo'lgach varaqlar yig'ib olinadi va aynan shu so'zlarni o'qtuvchi aytib turadi va o'quvchilar yozadi. Bu orqali ularga so'zlarni

to'g'ri yozish, ravon o'qish, to'g'ri, tushinib va tez o'qishni o'rgatish mumkin. 2 harfli so'zlar bilan ishlab bo'lgach navbat 3 harfli

Non, ona, ota, tosh, til, besh, olti...

singari so'zlar bosma shakilda yozib beriladi va o'qitiladi. O'qitib bo'lgach varaqqa qaramasdan to'g'ri yozib o'rgatiladi. So'ng 4 harfli so'zlar:

To'rt, ikki, sharf, olma, olti, kosa, bola...

singari so'zlar beriladi. O'quvchining bu mashq orqali to'g'ri, tez va ravon, sidirg'a o'qishi rivojlanib boradi. O'qish ko'nikmasi asta sekinlik bilan o'sib boradi. Besh harfli so'zlar o'qitiladi va yozdiriladi. Misoli uchun:

Vatan, zirak, kitob, uzim, terak, qalam...

Keyin olti harfli so'zlar o'rgatiladi:

Sayabon, telefon, yomg'ir, teraza, yostiq...

Bundan keyin yetti, sakkiz va undan ko'b harfli so'zlar o'rgatiladi. O'quvchilarning bu mashq orqali o'qish ko'nikmasi shakillanib boradi. Agarda o'zlashtirishi juda past o'quvchilar bo'ladigan bo'lsa va bu mashqni tugatgach sidirg'a o'qishga o'tmasa mashqni takrorlash tavsiya etiladi. O'quvchilar sidirg'a o'qishga o'tgach qisqa matnlarni o'qiy boshlashadi. Matnlarni ravon, tez va tushinib o'qishni o'rgangach boshqa adabiy kitoblar o'qishga beriladi. Sababi adabiy kitoblarni o'qish orqali nafaqat o'qish ko'nikmasi shakillanadi, o'quvchilarning fikir yuritish qobiliati oshadi, dunyo qarashlari kengayadi. O'quvchining darslarni o'zlashtirishiga to'sqinlik qiluvchi sabablarni yo'qatish zarur

1) Avvalo sinf rahbari har bir o'quvchining ota-onasi bilan birga ishlashi zarur. O'quvchi ko'p vaqtini maktabda emas uyda o'tkazadi. Shu voisdan bolaning uyda ota-onasi yoki unga ma'sul shaxs uy vazifalarini va kundalik baholarini nazorat qilishlari lozim.

2) Maktabda o'quvchi o'quvchilarni darsga qiziqтира olishi, darsni zamonaviy texnologiyalar, slayd, vidioroliklar orqali tushintirishi, dam olish daqiqalarini har bir darsda o'tkazishi, har bir o'quvchi bilan alohida shug'illanib borishi, dars davomida har xil interfoal metodlardan foydalanishi, darsga oid o'yillarini tashkillashtirishi lozim.

3) O'quvchining dars qiladigan xonasiga aloxida etibor berish kerak. Xona yorug'ligiga ham diqqat qaratish kerak. Yorug'lik chapdan o'nga tushishi lozim va albatta shovqin bo'lmasligini taminlash zarur.

4) Bolalarni kichkenaligidan kitobga qiziqtirib borish lozim. Rasimli ertak kitoblarni birgalikda o'qish, fikir almashish shahar kutubxonalarga kamida haftasiga bir marotaba olib borish tavsiya etiladi chunki bu bolalarni kitoblarga bo'lgan mehrini oshiradi.

5) Bolalarni doimiy nazorat qilish, televizor, kamyuter, telefon singari vositalarni meyoridan ortiq foydalanishni oldini olish lozim.

6) Bolalarni olti oydan tibbiy ko'rikdan o'tkazib turish, salomatligiga alohida etibor qaratish kerak



Albatta bularni oldi olinsa har bir o'sib kelayotgan yosh ovlodlarni barkamol, o'z fikriga ega shaxslar bo'lib etishishiga ishonamiz.

Bunadan boshqa bolalarni o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun " Harflardan so'z tuzish" metodidan foydalanish ham yaxshi natijalarni beradi. Masalan o'quvtuvchi o'quvchiga kichik qog'oz bolaklariga "Vatan" so'zidagi harflarni beradi va o'quvchiga shu harflardan so'z hosil qilishi kerakligini aytadi va 30 soniya vaqt beradi. Shu 30 soniya ichida o'quvchi "Vatan" so'zini tuzishi lozim. Bu metodni kichik guruhlarda o'yin shaklida o'tkazish ham mumkin. "Rasm asosida matn yaratish" metodi ham o'zlashtirishi boshqa o'quvshilarga nisbatan pastroq o'quvchilarni fikirlash doirasini kengaytirish ushin yaxshi natijalarni beradi. Bunda har bir o'quvchiga kichik matnlar yaratish uchun rasimlar beradi. Misol uchun " Qish faslini ko'rinisni". Bu rasimni kuzatish orqali bola nimalarni ko'rganini so'zlab beradi.

O'zlashtirishi qiyin bolalarda o'qish ko'nikmalarini shakillantirish uchun avvalo ularda o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish lozim. Buning uchun har xil o'yinlardan xars jaroyanida foydalanish yaxshi natijalarni ko'rsatadi. Misoli uchun: " Ortiqcha so'zni top" o'yini.

Uy hayvonlari: echki, qo'y, sigir, kapalak, ot  
o'quvchi bu so'zlar ichida ortiqcha yanii uy hayvoni bo'omagan "kapalak" so'zini topadi. Bu so'zni ortiqcha so'z deb to'g'ri topganligini o'qtuvchi tasdiqlagach o'quvchi bu so'zga taxtada gap tuzib yozadi. Misol: Kapalak juda chiroyli ko'rinishga ega.

Gap tuzib bo'lgach o'quvchiga kapalak rasmi sovg'a sifatida beriladi. Keyingi so'zlarga boshqa o'quvchilar chiqadi va ular ham bitta so'zga gap tuzadi. Qolgan o'quvchilar bu vazifani o'rinlarida o'tirgan holda bajaradilar. Bu o'yinni guruhlarda ham tashkillashtirish mumkin. Bunday o'yinlar o'quvchilarning fikirlash doirasini kengaytiradi, gap tuzib bo'lgach albatta yozadi va bu yozish ko'nikmasini va o'qish ko'nikmasini shakillantiradi. O'qish ko'nikmasi birdaniga shakillanib qolmaydi. Buning uchun o'qtuvchi o'zlashtiri qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan ko'proq ishlashi, doimiy nazorat qilishi lozim. Uyda esa unga ma'sul shaxs kitobga qiziqтира olishi, kutubxonalarga olib borib o'zi hohlagan kitoblarni olib berishi lozim. Bolaga agarda o'zi qiziqmagan kitobni olib bersa bolaning o'qishga bo'lgan ishtiyoqi yoqaladi. Misoli uchun: Bolaga ko'proq hayvonat dunyosi haqidagi kitoblar yoqishi mumkin. Agar unga boshqa kitoblar o'qitilsa u qiziqmasligu tufayli zerikadi va kitob o'qishdan qochadi. Manashunday holatlarda bolalarning o'qish ko'nikmasi sekinlik bilan rivojlanadi. Bolani o'qishva qiziqtirish, o'qish ko'nikmasini yanada rivojlantirish uchun pastagicha usillarni qo'llash mumkin:

1)Kitobni bir nechta varoqlari o'quvchiga o'qib beriladi. Bola hikoyaning davomi qandayligiga qiziqadi va o'qtuvchi kitob nomini aytadi. Kitobni kutubxonada borligini ham aytib o'tish lozim.

2) Oila davrasida kitoblar o'qish. Har kuni bir xil vaqtda bolaning ota-onasi bola bilan birgalikda 1-1,5 soat davomida kitob o'qishi kerak. Avvalo otasi 5-6 qator gapni o'qib beradi, so'ng onasi o'qiydi va navbatni bolaga beradi. Keyin kitobni bir nechta varoqlarini o'qib bo'lgach voqealarni birgalikda muhokama qilishadi. Bu juda yaxshi usul bo'lib, bola har kuni kechqurin kitob o'qiydigan paytni intilish bilan kutadi. Bolaning nafaqat o'qish ko'nikmasi, fikrlash doirasi ham shakillanib boradi. Har kuni kitoblar o'qish orqali o'zlashtirishi qiyin bolalar kitobga mehr qo'yadi. Ota-onasini ishonchini oqlash uchun ham a'lo baholar olishga intiladi. Bunda albatta kutubxonadan o'qish uchun birgalikda kitob tanlanadi. Bunday mehri va etibor bilan tarbiyalangan bola kelajakda, o'z kasibini yetuk egallagan, Vataniga mehri baland, komil inson bo'lib o'sadi. Shu boisdan farzandlarimizga etiborimizni va bor mehrimizni ayamashimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda o'zlashtirishi qiyin o'quvchilarda o'qish ko'nikmasini shakillantirish uchun har xil metod va o'yinlardan foydalana bilish zarur va albatta "Alifbo" hamda "O'qish kitoblaridan tashqari ertak, har xil qiziqarli hikoya singari kitoblarni o'qitish lozim. Kitob insonning eng yaqin do'sti hisoblanadi. U o'tmishdan va kelajakdan so'zlaydi. Inson har kuni oziqlangani singari, miyyamizni har kuni kitob bilan oziqlantirishimiz kerak. Kitob bilan do'st bo'lib, uni har kuni o'qigan bola kelajagimizni mustahkam poydevorini yaratadi. Bolalarning o'qish ko'nikmasi birdaniga shakillanib qolmaydi. Ular yillar davomida har xil mashqlar bajarib shug'illanishi kerak va albatta bunda ustozlar tayanch bo'lishi lozim. Shundagina bolalarni o'qish ko'nikmasi yo'qori darajada shakillanib boradi va biz farzandlarimizni kelajakda Vatanimizni taraqqiyotiga hissa qo'shadigan buyuk insonlar bo'lib ulg'ayishiga ishonch bildiramiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullaeva Q va boshqalar " Savod o'rganish darslari", Toshkent, "O'qtuvchi nashiryoti, 1996 yil
2. Abdullaeva Q va boshqalar "Ona tili", Toshkent, "O'qtuvchi" nashiryoti, 1999 yil
3. R.A.Mavlanova, N. Raxmonqulova "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi, Toshkent, Ilim-Ziyo 2009 yil
4. Abdullayeva Q va boshqalar "2-sinfda o'qish darslari" Toshkent, 2004 yil